

AT XALQ BANKI TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARGA MILLIY VA XALQARO KARTA HISOBVARAQLARNI OCHISH, BANK KARTALARINI MUOMALAGA CHIQRISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH TO'G'RISIDA

OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Mazkur ommaviy oferta shartnomasi O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (bundan buyon matnda "Bank") tomonidan bank kartalari orqali o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan Bank bilan Mijoz o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha Bankning rasmiy ommaviy taklifi (shartnoma) hisoblanadi. Ushbu ommaviy oferta shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367–370-moddalari, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 3294, 2021 yil 3 aprel), "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 3030, 2018 yil 3 iyul) va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Shartnoma Bankning rasmiy kanallarida (www.xb.uz va/yoki "XAZNA" ilovasi va/yoki Bank xizmat ko'rsatish shoxobchalari) e'lon qilingan paytdan boshlab ommaviy oferta hisoblanadi.

1. Asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu shartnomada foydalaniladigan atamalarning tushunchalari:

Bank kartasi – uni saqlovchisiga to'lov infratuzilmasi orqali to'lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag'larini olish yoxud valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to'lov vositasidir;

Mijoz – Bankning mintaqaviy va bank xizmatlari markazlariga tashrif buyurgan holda, shuningdek, internet tarmog'i www.xb.uz korporativ veb-sayti yoki "XAZNA" mobil ilovasi orqali bank kartasini ochish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha murojaat qilgan, ofertani akseptlovchi jismoniy shaxs;

Karta hisobvarag'i – bank kartasi orqali pul mablag'larini tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i;

Bank kartalari emissiyasi – bank kartalarini muomalaga chiqarish va foydalanishga taqdim etish bo'yicha faoliyat;

Bank kartalari qayta emissiyasi – bank kartalarini muomalaga qayta chiqarish va foydalanishga taqdim etish bo'yicha faoliyat (bank kartasi yo'qotilganda, shikastlanganda, muddati tugaganda va boshqa holatlarda mijoz arizasiga ko'ra ochish);

Emitent – bank kartasi emissiyasini amalga oshiruvchi, bank kartasining saqlovchilari va ekvayerlar tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo'yicha o'z nomidan majburiyatni zimmasiga olgan bank;

SHIR (Pin) kod – bank karta saqlovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami bo'lib, u karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga bank kartasining saqlovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

Slip – bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi, operatsiyaning miqdori, turi, amalga oshirilgan sanasi to'g'risidagi ma'lumotlarni va ushbu hujjatni shakllantirishda foydalanilgan bank kartasi, terminal yoki bankomatni to'g'ri aniqlay bilish imkoniyatini beruvchi axborotni o'zida mujassamlashtirgan qog'oz yoki elektron shakldagi hujjat (chek);

Milliy to'lov tizimlari – Yagona umumrespublika protsessing markazi – UZCARD, Milliy banklararo protsessing markazi – HUMO;

Milliy bank kartalari (keyingi o'rinlarda – MBK) – emitent tomonidan emissiya qilingan Humo/Uzcard bank kartalari egasiga undagi mablag'lar doirasida bank hisobvarag'i orqali to'lovlarni milliy valyutada amalga oshirish imkoniyatini beruvchi bank kartalari;

Xalqaro bank kartalari (keyingi o'rinlarda – XBK) – emitent tomonidan emissiya qilingan VISA bank kartalari egasiga undagi mablag'lar doirasida bank hisobvarag'i orqali to'lovlarni AQSh dollarida amalga oshirish imkoniyatini beruvchi bank kartalari;

Terminal – bank kartasining saqlovchisiga to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi va bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha (qog‘oz yoki elektron shakldagi) sliplarni shakllantiruvchi moslama yoki dasturiy ta‘minot;

Tranzaksiya – bank kartasi tomonidan ish va xizmatlar uchun amalga oshirilgan to‘lovlar;

Bankomat – bank kartasining saqlovchisiga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish tartibida naqd pul olish va bank kartasi bilan boshqa amaliyotlarini amalga oshirish imkonini beruvchi hamda bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha slip-hujjat shakllantiruvchi qurilma;

Avtorizatsiya – to‘lov operatori tomonidan ko‘zda tutilgan qoidalarga asosan telefon, elektron yoki aloqaning boshqa usullari yordamida bank kartasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank kartasi emitentining ruxsatini olish jarayoni;

Sug‘urta depoziti – bank karta hisobvarag‘ida saqlanishi majburiy bo‘lgan pul mablag‘ining minimal miqdori;

Bank tarifi – bank kartalari bo‘yicha operatsiyalarga tegishli to‘lovlar va vositachilik haqlarining barcha turlari hamda miqdorlari belgilangan amaldagi bank tarifini bildiradi;

Bankdan tashqari to‘lov tizimi – to‘lov tizimi belgilari va uning qoidalarini belgilovchi hamda bunday turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar (CLICK, PAYME, PAYNET va b.)

Masofaviy bank xizmatlari (MBX) – mijoz tomonidan masofadan turib telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda uzatiladigan (olinadigan) elektron almashinuvlar asosida ko‘rsatiladigan bank xizmatlari to‘plami. Jumladan:

SMS banking – bank kartasi orqali amalga oshirilgan to‘lovlarni nazorat qilish tizimi. online tarzda amalga oshirilgan har bir to‘lov va kartaning joriy qoldig‘i bo‘yicha karta egasining telefoniga SMS xabar keladi;

Shubhali operatsiya – tayyorlash, sodir etish jarayonida bo‘lgan yoki sodir etib bo‘lingan, ichki nazoratni o‘tkazish vaqtida tijorat bankida uning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarini legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligiga shubha paydo bo‘lgan operatsiya;

Internet to‘lov – Mijozga internet tarmog‘i orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish imkonini taqdim etish;

Ushlab turish (Hold) – Bank kartasi orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilgan operatsiya va komissiya summasini muzlatish;

Aksept – Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi; (O‘z.R.FKning 370-moddasi)

PAN – (Primary Account Number) to‘lov bank kartasining yuzidagi 16 xonali raqamlar majmuasi;

CVV/CVC – (Card Verification Value/Code) onlayn to‘lovlarni amalga oshiruvchi, bank kartasini orqa tomonidagi raqamlar majmuasining oxiridagi 3 ta xonali raqamlardan iborat maxsus kod;

Karta rekvizitlari – kartaning identifikatsiya ma‘lumotlari (PAN, amal qilish muddati va boshqa identifikatorlar), shuningdek karta orqali operatsiyalarni tasdiqlashda ishlatiladigan rekvizitlar (PIN-kod, CVV/CVC, bir martalik SMS/Push-kod, 3D Secure kodlari va h.k.). Mijoz rekvizitlar maxfiylikini saqlashi shart;

3D Secure / 3DS – internet tarmog‘ida karta operatsiyalarini qo‘shimcha autentifikatsiya (tasdiqlash) orqali himoyalash mexanizmi;

Token / tokenlash – kartaning birlamchi rekvizitlari o‘rniga to‘lov tizimlari va hamyonlar (Apple Pay / Google Pay / boshqa) tomonidan beriladigan raqamli identifikator (token)dan foydalanish mexanizmi;

Tezkor karta – Bank tomonidan muomalaga chiqariladigan, Mijoz nomiga darhol rasmiylashtirish imkonini beradigan, oldindan tayyorlangan (nomlanmagan) to‘lov kartasi bo‘lib, undan Bank tomonidan belgilangan tartibda identifikatsiyadan o‘tgandan so‘ng foydalanish mumkin. Tezkor karta turlicha, shu jumladan **instant, moment, anonim, prepaid** karta deb nomlanishi mumkin;

Tariflar – Bank tomonidan tasdiqlangan va Bankning rasmiy kanallarida e‘lon qilinadigan (yangilanadigan) xizmat haqlari, komissiyalar, limitlar, premium servislar shartlari va boshqa moliyaviy shartlar majmui;

Dispute – VISA, Mastercard va UnionPay xalqaro to‘lov tizimlari qoidalariga muvofiq, Mijoz

tomonidan to'lov kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiya bo'yicha bildirilgan e'tiroz (nizo) bo'lib, ushbu operatsiyaning qonuniyligi, to'g'riligi yoki asoslanganligini aniqlash maqsadida Bank tomonidan belgilangan tartibda va tegishli to'lov tizimi reglamentlari asosida ko'rib chiqiladi;

Kompromotatsiya - to'lov tizimi va bank kartasiga kirish uchun foydalaniladigan Parol yoki tasdiqlash vositalaridan faqat Mijozning ulardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs foydalanishiga bo'lgan ishonchning yo'qolishi;

chargeback – VISA, Mastercard va UnionPay xalqaro to'lov tizimlari qoidalariga muvofiq, Dispute natijasida asosli deb topilgan holatlarda, to'lov kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiya summasini emitent bank tashabbusi bilan savdo/xizmat ko'rsatuvchi tomondan (ekvayer bank orqali) Mijoz foydasiga qaytarish jarayonidir;

To'lov Agenti - bank tomonidan mijozlardan to'lovlarni qabul qilish yoki amalga oshirish hamda boshqa bank mahsulotlarini sotish uchun jalb qilinadigan jismoniy yoki yuridik shaxs;

AML (Anti-Money Laundering) – bu **pul yuvishga qarshi kurash**. Ya'ni noqonuniy yo'l bilan topilgan pullarni (masalan, korrupsiya, narkotik savdosi) “toza” qilib ko'rsatishni oldini olish;

CFT (Countering the Financing of Terrorism) – bu **terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash**. Ya'ni terror tashkilotlariga pul yoki moliyaviy yordam yetib borishini to'xtatish.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq, Bank Mijozga milliy va chet el valyutasidagi bank karta hisobvarag'ini ochadi, bank kartasini (debet) muomalaga chiqaradi hamda bank kartasiga xizmat ko'rsatadi, Mijoz esa ushbu Shartnoma shartlariga, Tariflarga, to'lov tizimlari qoidalariga va amaldagi qonunchilikka rioya etgan holda kartadan foydalanadi hamda Bank xizmatlari uchun belgilangan haq va komissiyalarni to'laydi;

2.2. Mazkur Shartnoma debet kartalarga nisbatan qo'llanadi. Kartaning turi, mahsulot paketi, premium servislari (mavjud bo'lsa), limitlar va komissiyalar Tariflarda belgilanadi. Bank mahsulot nomlarini yangilashi, paketlarni qayta nomlashi yoki o'zgartirishi mumkin, bunda mazkur Shartnoma kartadan foydalanishning umumiy qoidalari sifatida amalda qoladi. Kartalar, bank kartasi, plastik kartalar va to'lov kartasi tushunchalari bir xil mazmunda qabul qilinadi.

3. Shartnomaning umumiy shartlari va qoidalari

3.1. Ushbu Shartnomani akseptlagan Mijoz:

3.1.1. bank kartasini ochish va ularga xizmat ko'rsatishdan manfaatdor ekanligini;

3.1.2. bank kartasini ochish bo'yicha Bankning shartlari, Tariflar, limitlar hamda e'lon qilingan ma'lumotlar bilan to'liq tanishganligini va roziligini;

3.1.3. o'z haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etgan holda (zarur bo'lsa identifikatsiya/tekshiruvdan o'tib), bank kartasini ochish va unga xizmat ko'rsatish jarayonlarida Bankka ishonchli va to'liq ma'lumot taqdim etishini;

3.1.4. bank kartasini ochish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq harakatlar Bankning masofaviy kanallari orqali amalga oshirilganda, Mijozning identifikatsiyasi, autentifikatsiyasi va operatsiyalarni tasdiqlash usullari Bank tomonidan belgilanishini va Mijoz ushbu usullardan foydalanishga roziligini;

3.1.5. Bankdan yozma hujjatlar Mijozga Bankning Mintaqaviy markazlari va Bank xizmatlari markazlari orqali yoki masofaviy kanallar orqali (Bank belgilagan tartibda) taqdim etilishini;

3.1.6. Shartnoma bilan tanishganligini va taklif etilgan barcha shartlarni tushunganligini hamda to'liq roziligini bildiradi;

3.2. Mijoz ushbu Shartnoma bilan bog‘liq barcha masalalar yuzasidan Bank bilan muloqot qilishda Bankning rasmiy aloqa kanallaridan foydalanadi.

3.3. Mijoz uchinchi shaxslar (jumladan “yordamchi”, “vositachi”, “kuryer” va boshqalar) orqali berilgan ko‘rsatmalar, havolalar, ilovalar, qo‘ng‘iroqlar yoki xabarlar asosida karta rekvizitlarini taqdim etishi natijasida yuzaga keladigan barcha xavflar uchun javobgar hisoblanadi. Shuningdek, Mijoz o‘z ehtiyotsizligi oqibatida kartalar (shu jumladan tezkor kartalar) bo‘yicha uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar bilan bog‘liq xavflar uchun ham javobgardir.

3.4. Bank kartasi Mijozga foydalanish uchun beriladi, Mijoz uni uchinchi shaxsga topshirishga, noqonuniy maqsadlarda ishlatishga, shuningdek karta va rekvizitlar xavfsizligini ta‘minlamaslikka haqli emas.

3.5. Bank kartalari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, to‘lov tizimlari qoidalari va Bankning ichki me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda Bank tomonidan yoki vakolatli organlar talabi asosida bloklanishi, cheklanishi, shuningdek operatsiyalar vaqtincha to‘xtatilishi mumkin.

4. Shartnomani tuzish tartibi (akseptlash tartibi)

4.1. Mijoz akseptni ushbu Shartnoma shartlariga roziligi yuzasidan Bankning internet tarmog‘i (www.xb.uz), “XAZNA” ilovasi va/yoki Bankning Mintaqaviy markazlari/Bank xizmatlari markazlariga tegishli ariza (murojaat) taqdim etish orqali amalga oshiradi. Aksept Mijozning Shartnomani to‘liq va hech qanday e‘tirozsiz qabul qilganligini anglatadi.

4.2. Aksept Bank axborot tizimlari tomonidan qayd etilgan paytdan boshlab, mazkur Shartnoma Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan hisoblanadi. Mijoz Shartnomani aksept qilish bilan Bankning Tariflari, limitlari, xavfsizlik talablari, 3DS/tokenlash/qayta autentifikatsiya kabi xavfsizlik mexanizmlarini qo‘llash tartibini ham qabul qilgan hisoblanadi.

5. Bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartlari

5.1. Mijoz tomonidan bank kartasini ochish yuzasidan Bankning Mintaqaviy markazi/Bank xizmatlari markaziga tashrif buyurgan holda ariza berilganidan so‘ng yoki Bankning internet tarmog‘idagi www.xb.uz korporativ veb sayti yoki “XAZNA” ilovasi orqali murojaat taqdim qilingan kundun so‘ng, keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijoz nomiga bank karta hisobvarag‘i hamda Bankning texnologik tartiblariga muvofiq muddatlarda bank kartasi ochiladi (muomalaga chiqariladi).

5.2. **Bir foydalanuvchiga beriladigan kartalar soni.** Mijoz nomiga O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha banklar tomonidan chiqarilgan jami “so‘m” hisobli yigirma 20 (yigirma) dona bank kartalari (virtual va kobeyjing kartalarni inobatga olgan holda) chiqarilgan bo‘lsa, Bank mijozga yangi karta chiqarilishini rad etishga haqli.

5.3. **Bir foydalanuvchiga bitta Bankda beriladigan kartalar soni.** Bank tomonidan mijozning bitta bankda besh 5 (besh) dona «so‘m» hisobli bank kartalariga (virtual va kobeyjing kartalarini inobatga olgan holda) ega bo‘lishi bo‘yicha cheklov belgilangan, kartalar soni ushbu limitga yetgan taqdirda, mijoz nomiga qo‘shimcha karta chiqarilmaydi.

5.4. Bank karta hisobraqami ochilib, bank kartasi muomalaga chiqarilganidan so‘ng hamda Mijozning shaxsi identifikatsiya qilinganidan so‘ng, bank kartasi shaxsan Mijozning o‘ziga yoki ishonchnoma asosida uning qonuniy vakiliga to‘lov tizimlari qoidalariga muvofiq taqdim etiladi. Mijoz ishonchnoma orqali berishda barcha xavflar va oqibatlarni ham inobatga oladi.

5.5. Bank kartasi kuryerlik xizmati orqali yetkazib berilishi qo‘shimcha haq evaziga (yoki bepul) amalga oshiriladi. Qo‘shimcha haq miqdori Bank Tariflarida belgilanadi va Bankning rasmiy kanallarida e‘lon qilinadi. Yetkazib berishda Mijoz kartani qabul qilganini tasdiqlovchi identifikatsiya/protokollash Bank tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

5.6. Bank kartasi shartnomaning 5.1–bandida belgilangan muddatda ochilganidan so‘ng, quyidagi muddatlarda yetkazib beriladi:

- HUMO, UZCARD yoki co-badge kartalari – 3 (uch) bank kuni ichida;

- Mastercard, VISA, UnionPay – Toshkent shahri – 3 (uch) bank kunida/ Toshkent viloyati va Respublikaning boshqa viloyatlariga – 10 (o‘n) bank kuni ichida. Yetkazib berish muddatlari logistika, vakolatli organlar cheklovlari, fors-major va boshqa Bankka bog‘liq bo‘lmagan holatlar sabab o‘zgarishi mumkin.

5.7. Bank kartasining amal qilish muddati kartaning old/orqa tomonida yoki **xazna** ilovasida kartalar bo‘limida ko‘rsatiladi. Karta muddati tugaganda qayta chiqarish Bank tartibiga ko‘ra amalga oshiriladi.

5.8. Bank kartalari, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, to‘lov tizimlarining qoidalari va bankning ichki me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda Bank tomonidan yoki vakolatli organlar tomonidan bloklanishi mumkin.

5.9. Bank kartasi Mijozning yozma murojaati, Bankning aloqa markazlari orqali va/yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bloklanishi mumkin. Mijoz bloklash bo‘yicha xabarnoma yuborilgan paytdan boshlab kartadan foydalanish huquqi cheklanadi; bloklashga qadar sodir bo‘lgan operatsiyalar bo‘yicha javobgarlik 10-bo‘limga muvofiq belgilanadi.

Kompromotatsiya holatida Bank Bank kartasini bloklash huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bank kartasini blokdan chiqarishga blokka tushish sabablari bartaraf etilgandan so‘ng ruxsat beriladi.

5.10. Mijoz nomiga qo‘shimcha bank kartasini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish qo‘shimcha karta bog‘lanayotgan hisobvaraqlar shartnomasi bilan tartibga solinadi, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

5.11. Xalqaro kartadan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilganda, operatsiya summasi qabul qiluvchi mamlakat valyutasiga va/yoki to‘lov tizimi hisob-kitob valyutasiga to‘lov tizimi kursi hamda qoidalari bo‘yicha avtomatik konvertatsiya qilinishi mumkin. Bank to‘lov tizimi va ekvayer tomonidan qo‘llaniladigan kurs, komissiya va cheklovlar uchun javobgar bo‘lmasligi mumkin.

5.12. Xalqaro karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida mijoz tomonidan yozma ravishda e‘tiroz bildirilmagan har qanday operatsiyalar amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

5.13. Xalqaro karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bilan bog‘liq nizolar tegishli xalqaro to‘lov tizimi (VISA, Mastercard, UnionPay va boshqalar) qoidalari asosida ko‘rib chiqiladi. Mijoz to‘lov tizimi qoidalarida belgilangan muddatlar, talablar va hujjatlarni taqdim etish majburiyatini qabul qiladi.

5.14. Bank kartalari bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatib turilishi “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat” qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.15. Bank kartasi hisobvarag‘idan chiqim qilingan e‘tirozli operatsiyalar bo‘yicha Mijoz Bankka yozma e‘tiroznoma arizasini taqdim qiladi. Arizada operatsiya tafsilotlari, e‘tiroz sabablari hamda Bank so‘ragan tasdiqlovchi hujjatlar (cheklar, yozishmalar, skrinshotlar, tovar qaytarish dalolatnomasi va h.k.) ilova qilinishi shart.

5.16. Tezkor kartalar Bank xizmat ko‘rsatish bo‘limlari yoki To‘lov agentlari orqali realizatsiya qilinishi (sotilishi, tarqatilishi) mumkin. Realizatsiya usulidan qat‘i nazar, ushbu Shartnoma talablari barcha kartalar uchun bir xil qo‘llaniladi.

5.17. Tezkor kartani rasmiylashtirishda Bank yoki To‘lov agenti zarur hollarda Mijozdan pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

5.18. Tezkor karta faqat Bank tomonidan belgilangan identifikatsiya va autentifikatsiya jarayonlaridan o'tilgandan so'ng aktivlashtiriladi. Aktivatsiya Mijoz tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

5.19. Identifikatsiyadan to'liq o'tmagan kartalar uchun Bank tomonidan operatsion limitlar va cheklovlar belgilanishi mumkin.

5.20. To'lov agenti kartalar bo'yicha o'zi ko'rsatadigan xizmatlar uchun mustaqil ravishda xizmat haqi belgilashi mumkin. Ushbu xizmatlar uchun to'lovlar Bank tariflariga kiritilmaydi va ular bo'yicha Bank javobgar hisoblanmaydi.

5.21. Bank kartasi topshirilganligi tegishli tasdiqlovchi vositalar (imzo, elektron tasdiq, SMS tasdiq, foto/video va boshqa usullar) orqali qayd etilishi mumkin.

5.22. Tezkor karta Mijozga topshirilganda uning shaxsi Bank tomonidan belgilangan tartibda identifikatsiya qilinadi.

5.23. Mijoz tezkor kartani qabul qilib olgan paytdan boshlab undan foydalanish bilan bog'liq barcha xavflar va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

5.24. Tezkor (moment) kartani rasmiylashtirish uchun komissiya mijozning karta hisobvarag'idan avtomatik tarzda yechib olinadi. Komissiyani undirish vaqtida hisobvaraqda yetarli mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu majburiyat mijoz zimmasida saqlanib qoladi hamda keyinchalik hisobvaraqga mablag' kelib tushganda yoki ushbu Shartnomaning 7.1.6-bandiga muvofiq mijozning boshqa hisobvaraqlari va/yoki bank kartalari hisobidan undiriladi.

6. Bankning majburiyatlari

6.1. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

6.1.1. Mijoz bilan shartnoma tuzilganidan so'ng milliy va chet el valyutasidagi maxsus karta hisobvarag'ini ochish va bank kartalarini muomalaga chiqarish;

6.1.2. Mijozning maxsus karta hisobvarag'ini bank karta bo'yicha amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar summasiga debetlantirish va ko'chirmalarda aks ettirish;

6.1.3. Mijozning bank kartasi orqali bajarilgan hisoblari bo'yicha topshiriqlarini mazkur Shartnoma shartlariga asosan bajarish;

6.1.4. Mijozning topshirig'iga asosan mablag'larni boshqa hisob raqamlarga ko'chirish (Bankning texnologik va xavfsizlik tekshiruvlari doirasida);

6.1.5. Mijozning arizasiga asosan bank kartasi bo'yicha hisob-kitoblar aylanmalari to'g'risida ko'chirmalar berish;

6.1.6. Mijoz bank kartasi yo'qotilganligi to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan hollarda amaldagi qoidalar va yo'riqnomalarda belgilangan tartibda bank kartasining amal qilishini to'xtatish va "stop-list"ga qo'yish;

6.1.7. Bankning Tariflari to'g'risidagi ma'lumotlarni Bankning rasmiy kanallarida joylashtirib borish;

6.1.8. Ushbu Shartnoma shartlarini qonunchilik hamda Bankning ichki tartiblariga muvofiq, lozim darajada bajarish;

6.1.9. Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi Mijoz zararli holatga uchraganda, "Xazna" mobil ilovasi orqali unga xabarnoma yuborish.

7. Bankning huquqlari

7.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

7.1.2. Mijoz bank kartasi orqali shubhali va gumonli operatsiyalarni amalga oshirilgan hollarda, "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari"(ro'yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) talablariga asosan ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

7.1.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilganda, milliy va xalqaro to'lov tizimlarining emissiya va xizmat ko'rsatish tartibi o'zgargan taqdirda, ushbu shartnoma bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki mijozni xabardor qilgan holda bekor qilish;

7.1.4. Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan operatsiyalari uning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish, shuningdek, eksporti (reeksporti) taqiqlangan tovar eksportidan yoki sanksiyaga tushgan bank va tashkilotlardan kelib tushgan valyuta mablag'larini aniqlashtirgunga qadar tegishli hisob raqamlarga kirim qilgan holda muzlatib qo'yish;

7.1.5. Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan operatsiya oqibatida bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llanish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda, bank karta (hisob raqam) ochilishi va operatsiya amalga oshirilishini bir tomonlama rad etish;

7.1.6. Bank Tariflar hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq, mijozning qo'shimcha roziligisiz (akseptsiz), uning bank kartasi hisobvarag'idan hamda barcha Bankdagi boshqa hisobvaraqlari va bank kartalaridan quyidagi mablag'larni yechib olish (ko'chirish) huquqiga ega:

- Bank xizmatlari uchun komission to'lovlar;
- Bank kartasi hisobvarag'iga noto'g'ri yoki adashib kirim qilingan mablag'lar;
- Bank kartasi hisobvarag'ida yetarli mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda yuzaga kelgan qarzdorlik;
- Bank kartasi hisobvarag'idagi mavjud qoldiqdan ortiq miqdorda amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo'yicha, mijoz tomonidan 3 (uch) kun ichida qoplanmagan mablag'lar;
- shartnomaning 7.1.7 va 7.1.8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelib, bank kartasi hisobvarag'i yopilganda undagi qarzdorlikni mijozning boshqa hisobvaraqlari va/yoki bank kartalari hisobidan undirish;
- shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda yuzaga kelgan majburiyatlar.

7.1.7. Bank, jismoniy shaxsning bank kartasi, shu jumladan virtual karta ochilgan, lekin oxirgi 12 oyda hech qanday amaliyotlar bajarilmagan va pul qoldig'i mavjud bo'lmagan bank kartalarini bloklash va hisobvarag'ini yopish;

7.1.8. Bank, jismoniy shaxsning bank kartasi, shu jumladan, virtual karta ochilgan, lekin oxirgi 12 oyda hech qanday amaliyotlar bajarilmagan va pul qoldig'i mavjud bank kartalarini bloklash;

7.1.9. Mijoz, bank kartasi ishtirokida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etganlik holatlari aniqlangan taqdirda, ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish va bu haqda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

7.1.10. Mijozga xizmat ko'rsatish xavfsizligini ta'minlash maqsadida 3DS, tokenlash, qo'shimcha autentifikatsiya va risk-kontrollar (limitlar, MCC-checklovlar, geo-checklovlar)ni joriy etish va qo'llash;

7.1.11. Bank Tariflari va xizmat ko'rsatish shartlarini amaldagi qonunchilikka muvofiq bir tomonlama o'zgartirish, bunda yangilangan Tariflar Bankning rasmiy kanallarida e'lon qilingan paytdan e'tiboran qo'llaniladi;

7.1.12. Mijoz Bankka taqdim etgan ma'lumotlarda aniqlik yo'qligi, yangilamasligi yoki ishonchligi bo'yicha shubha tug'ilganda, Mijozdan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish;

7.1.13. Vakolatli organlar talabi, sud hujjalari, AML/CFT talablariga muvofiq karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish, hisobvaraqni cheklash yoki boshqa choralarni ko'rish.

8. Mijozning majburiyatlari

8.1. Mijoz quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

8.1.1. Karta ma'lumotlarini (kartaning raqami, amal qilish muddati, pin kod, sms xabarnoma xizmati ulangan raqam va unga kelgan tasdiqlash kodlari, mobil ilovaga kirish login va parollari) begona shaxslarga taqdim etmaslik;

8.1.2. Kartaning/mobil qurilmaning yo'qolganligi, o'g'irlanganligi, rekvizitlarning oshkor bo'lganligi, shubhali operatsiyalar sodir bo'lganligi, uchinchi shaxslar tomonidan qurilmani boshqarishga nazorat o'rnatilganligi aniqlagan paytdan boshlab 1 kundan kechiktirmay Bankka xabar berishi va kartani bloklash choralarni ko'rish (aloqa markazi va/yoki masofaviy kanallar orqali);

8.1.3. Turar joy, pasport ma'lumotlari hamda bog'lanish kanallari (telefon raqam, elektron pochta va h.k) o'zgargan taqdirda, Bankka 3 kun muddatda xabar berish;

8.1.4. Bank kartasidan shubhali va gumonli operatsiyalar amalga oshirmaslik;

8.1.5. Mijoz, milliy va xalqaro to'lov tizimlarining (VISA, Mastercard, Union pay va boshqalar) emissiya tartibiga va xizmat ko'rsatish shartlariga qat'iy rioya qilishi;

8.1.6. Ushbu oferta shartnomasi bo'yicha axborotlarni Kredit byurosiga va Garov reyestriga, skoring kompaniyasiga, mobil aloqa operatoriga, va zarur bo'lganda, sug'urta kompaniyasiga berishga, shuningdek, xizmatlarni amalga oshirishga va sifatini yaxshilash maqsadida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish, foydalanish va uchinchi shaxsga taqdim etishga o'z roziligini berish;

8.1.7. Bank kartasidan foydalanish jarayonida "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini" (ro'yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) talablariga rioya etish;

8.1.8. Bank kartasidan foydalanish qoidalariga, to'lov tizimlari talablariga, 3DS va xavfsizlik mexanizmlariga rioya qilish; Bank so'ragan hollarda e'tiroz (dispute/chargeback) bo'yicha hujjatlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish;

8.1.9. Bank kartasini, shu jumladan tezkor kartani uchinchi shaxslarga topshirmaslik, kartani faollashtirish (aktivatsiya), PIN-kod o'rnatish va undan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga bermaslik;

8.1.10. Bank tomonidan yuboriladigan xabarlarini, jumladan mobil ilovadagi bildirishnomalarni, SMS va PUSH-xabarlarini diqqat bilan o'rganib chiqish;

8.1.11. Bankdan firibgarlik to'g'risida xabarlarini olgan taqdirda, har qanday to'lov amaliyotlarini tasdiqlashda ehtiyotkor bo'lish;

8.1.12. O'z roziligisiz amalga oshirilgan operatsiya faktini aniqlagan paytdan boshlab 1 kun ichida bu haqida Bankka xabar berish;

8.1.13. Bankning so'roviga ko'ra foydalanuvchi operatsiyani o'zi mustaqil ravishda amalga oshirganligi yoki uni o'z topshirig'i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Shuningdek, firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishi lozim;

8.1.14. O'z shaxsiy ma'lumotlari komprometatsiya holatida qolganda yoki qolish xavfi yuzaga kelganda Bankni zudlik bilan xabardor qilish, umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan Internet orqali uzatilgan ma'lumotlarning xavf ostida qolishi ehtimoli bilan bog'liq xavflarni o'z zimmasiga olish.

9. Mijozning huquqlari

9.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

9.1.1. Cheklanmagan miqdorda bank kartasi hisob raqamini naqd pulda va qonunda belgilangan tartibda naqd pulsiz to'ldirib turish;

9.1.2. Bank kartasi hisob varag'i bo'yicha bajarilgan amaliyotlar to'g'risida Bankdan aylanmalar bo'yicha ko'chirma va ma'lumotlar olish;

9.1.3. Bank kartasiga mablag'lar qoldig'i va hisobraqamga kelib tushib, kartochkaga yuklatilmagan mablag'larni talab qilish;

9.1.4. Bank Tariflari va shartlari bilan Bankning rasmiy kanallari orqali tanishish hamda ularga oid izoh so'rash.

10. Taraflarning javobgarligi

10.1. Mijozning javobgarligi:

10.1.1. Bank kartasi hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi va Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqqoniyligi bo'yicha javobgar hisoblanadi;

10.1.2. Bank kartasi hisobvarag'idan noto'g'ri foydalanishi yoki noqonuniy harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan zararlarni to'liq qoplash yuzasidan javobgar hisoblanadi;

10.1.3. Bank kartasi yo'qolganligi va o'g'irlanganligi to'g'risida Bankka belgilangan muddatda yozma ravishda ariza va/yoki telefon orqali xabar bermasligi oqibatida, bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha shaxsan o'zi javobgar hisoblanadi;

10.1.4. Mijoz o'z nomiga rasmiylashtirilgan bank kartasining pin-kodini maxfiyligi va SMS xabarnoma orqali keladigan bir martalik tasdiqlovchi kodlarni, mobil ilovalarga kirish huquqini beruvchi parollarni begona shaxslarga oshkor etilmasligi bo'yicha javobgar hisoblanadi;

10.1.5. Agar bank kartasi uchinchi shaxs tomonidan aktivatsiya qilingan bo'lsa yoki karta rekvizitlari uchinchi shaxslarga oshkor etilgan bo'lsa, ushbu kartadan foydalanish natijasida yuzaga keladigan barcha majburiyatlar va zararlar to'liq Mijoz zimmasiga yuklatiladi.

10.2. Bankning javobgarligi:

10.2.1. Bank karta hisobraqami bo'yicha noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlar uchun Bankning javobgarligi noto'g'ri/xato to'lovni bekor qilish va/yoki texnik tuzatish kiritish bilan cheklanadi (qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan hollar bundan mustasno);

10.2.2. Elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari bank tomonidan buzilgan taqdirda, u mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lanadi.

10.3. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

- xalqaro va mahalliy to'lov tizimida, shuningdek, banklararo elektron to'lov tizimlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;
- uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartalariga xizmat ko'rsatilishi rad etilgan hollarda;
- karta orqali xarid qilingan tovarlar/ishlar/xizmatlar sifati va ularni qaytarish nizolarida;
- Mijoz manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan darajadagi uchinchi shaxslar tomonidan bank kartasi orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarga o'rnatilgan limitlar, cheklovlar va boshqa to'lovlar bo'yicha;
- Mijoz tomonidan shartnoma shartlari buzilganda yoki mijoz tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan hollarda;
- Mijozning ruxsatisiz yoki bank kartasi yo'qolganligi/o'g'irlanganligi to'g'risida bankka yozma ariza taqdim qilinishidan avval bank kartasi vositasida bajarilgan operatsiyalar bo'yicha;
- Mijoz tomonidan karta malumotlari uchinchi shaxslarga oshkor etilishi oqibatida yoki uni ishtirokisiz bank kartasidan bank amaliyotlari bajarilganligi bo'yicha;
- Mijozga ko'rsatilgan xizmatlar uchun undan ekvaer tomonidan undirilgan komission to'lovlar miqdori, turi, shuningdek, ekvayer tomonidan yuborilgan tranzaksiyalarning summasi bo'yicha;
- Mijoz tomonidan bank kartasidan foydalanish qoidalari buzilgan hollarda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga zid harakatlarni sodir etgan hollarda;
- Mijoz kartani yoki uning rekvizitlarini (PAN, CVV/CVC, PIN kodni, amal qilish muddati va boshqalar) o'zining ma'suliyatsizligi oqibatida uchinchi shaxslar tomonidan egallanishiga yo'l qo'ygan hollarda;
- mijoz tomonidan Bankka kartani yo'qolganligi to'g'risidagi yozma ravishda ariza taqdim etilishidan avval amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo'yicha;
- To'lov agentlari orqali karta realizatsiya qilinganda Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma talablariga rioya etilmagan hollarda;
- Kartani mobil ilovaga biriktirishda, tezkor kartani mobil ilova orqali aktivatsiya qilishda, kartani tashqi qurilmalar (bankomatlar) orqali SMS xabarnomaga ulashda va boshqa hollarda Mijoz Bank tomonidan taqdim etilgan yo'riqnomaga rioya qilmaganda yoki ushbu jarayonda uchinchi shaxslarga kartadan foydalanish imkoniyatini yaratib bergan hollarda.

11. Shartnomaning amal qilish muddati

11.1. Mazkur Shartnoma _____ yil muddatga tuziladi. Agar uning amal qilish muddati tugashidan kamida 1 oy avval Shartnomani bekor qilish niyati haqida boshqa tomon yozma ravishda xabar bermagan bo'lsa, shartnoma avtomatik tarzda navbatdagi bir yillik davrga uzaytiriladi. Amal qilish muddati uzaytirilganda karta Bank tartibiga muvofiq yangi muddatga muomalaga chiqarilishi mumkin.

11.2. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi bilan, agar u uzaytirilmagan bo'lsa, Mijoz bank kartasini Bankka qaytarishi shart.

12. Shartnomaning bekor qilinishi

12.1. Shartnoma taraflarning tashabbusi bilan yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

12.2. Mijoz bir oy avval Bankni yozma ravishda xabardor qilish orqali istalgan paytda ushbu shartnomani bekor qilishi mumkin. Bunday hollarda Mijoz bank kartasini Bankka qaytarishi lozim.

12.3. Mijoz tomonidan shartnoma bekor qilingan taqdirda, u shartnoma bekor qilinishiga qadar amalga oshirilgan har qanday tranzaksiyalar yuzasidan va shartnoma bekor qilingandan so'ng bank kartasini Bankka o'z vaqtida qaytarilmagan hollarda to'liq javobgar bo'ladi.

12.4. Mazkur shartnomaning 8.1.9-bandida ko'rsatilgan talablar Mijoz tomonidan bajarilmagan taqdirda, Bank ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qiladi.

12.5. Shartnomaning bekor qilinishi Mijozning bank kartasi hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'lib hisoblanadi (qonunchilik va Bankning texnologik jarayonlari doirasida).

12.6. Shartnoma muddatining tugashi Mijozni o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi tufayli yuzaga kelgan javobgarligidan ozod etmaydi.

13. Maxfiylik

13.1. Shartnoma taraflari shartnoma bo'yicha axborotlarni maxfiyligi ta'minlanishi uchun javobgardirlar;

13.2. Bank mijoz tomonidan bank kartalardan foydalanilgan holda amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlanishini kafolatlaydi;

13.3. Mijoz tomonidan bank kartalardan foydalangan holda amalga oshirilayotgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin;

13.4. Mijoz karta rekvizitlari, PIN-kod, 3DS kodlar, mobil ilova parollari va boshqa autentifikatsiya vositalarining maxfiyligini ta'minlashga majbur. Mijozning ehtiyotsizligi yoki uchinchi shaxsga oshkor etishi oqibatida yuzaga kelgan zararlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi (10.2.3-band doirasida);

13.5. Voyaga yetmagan jismoniy shaxslarning bank hisobvarag'i bo'yicha, amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq, Bank tomonidan ota-onadan biri yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (qonuniy vakillari)ga ushbu voyaga yetmagan shaxslar bilan bog'liq shubhali operatsiyalar haqida xabardor qilinishi mumkin.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish

14.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning kaffillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta'sir o'tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydi, to'lashni taklif etmaydi va bunday to'lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

14.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning kaffillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

14.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag'batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag'lari, sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchi harakatlarni sodir etmaydi. Tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

14.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubha tug'ilganda, tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og'zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi. Shuningdek, ushbu tomondan ma'lum muddat ichida tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

14.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

15. Nizolarning hal etilishi

15.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga keladigan barcha nizolar taraflar ishtirokida o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

15.2. Muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Xalqaro operatsiyalar bo'yicha nizolar (chargeback/disput) tegishli to'lov tizimi qoidalariga muvofiq yuritiladi (**5.11-band**).

16. Fors – major holatlar

16.1. Shartnoma tuzilganidan so'ng yuzaga kelgan va uni tomon imkoniyat doirasida choralar bilan bartaraf eta olmagan (fors major) kuch oqibatida ushbu shartnoma bajarilmagan yoki qisman bajarilmagan bo'lsa, tomonlar majburiyatlarning qisman yoxud to'liq bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

16.2. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari ular buning uchun vakolatga ega bo'lgan organlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan taqdirda fors- major holati etib hisoblanadi.

16.3. Fors-major holatlari davomida Bank xizmat ko'rsatish rejimi, operatsiyalarni cheklash va xavfsizlik choralari kuchaytirish huquqiga ega.

17. Yakuniy qoidalar

17.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, to'lov tizimlari qoidalari hamda Bankning ichki hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

17.2. Tomonlarning kelishuviga muvofiq ushbu shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

17.3. Bank Tariflari, limitlari va xizmat ko'rsatish shartlari Bankning rasmiy kanallarida e'lon qilinadi va yangilanadi. Yangilangan shartlar e'lon qilingan paytdan boshlab qo'llaniladi.

18. Bankning rekviztlari

Xalq banki

Manzil: _____

H/R _____

MFO: _____

OKED: _____

STIR: _____

Telefon: (+99871)210-20-02

www.xb.uz

elektron manzil: info@xb.uz.